

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING 9-SON YIG‘ILISHI
BAYONI**

Raislik qiluvchi:

**Ma’muriy masalalar
bo‘yicha birinchi prorektor
D.A.Nasimov**

Bayonni yurituvchi:

Protokol kotibiyati
bo‘limi bosh mutaxassisi
A.Izbasarova

2025-yil 31-oktabr

soat: 14.00

229-xona

Qatnashuvchilar: D.A.Nasimov, R.J.Hoffmann, T.Q.Zou, A.Gadayev, A.To‘xtamishov, N.Xushvaqto‘v, N.Abduvaxidova, S.Matlabov, F.Nurov, N.Mansurova, T.Sultanov, T.Akramova, N.Turdiyeva.

Taklif etilganlar: Sh.Mardanova.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va Turizm qo‘mitasi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari.

Birinchi prorektor prof. D.A.Nasimovning axboroti.

2. 2025-yil yanvar-oktabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida.

Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovanning axboroti.

3. 2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari uchun ishlab chiqilgan Bitiruv malakaviy ish va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo‘yicha yo‘riqnomalarni tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning axboroti.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida 2026-yil universitet rahbar va pedagog

kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari kontingenti shakllantirish to'g'risida.

O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning axboroti.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrda 472-son buyrug'ining 3-band ijrosini ta'minlash maqsadida 2025/2026-o'quv yili Yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruv malakaviy ishi hamda test topshiradigan Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini tasdiqlash to'g'risida.

O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning axboroti.

6. Har xil masalalar.

6.1. "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrasida" kafedrasida v.b. dots., PhD Sultanova Nigina Utkurovna tomonidan 60410100 – "Iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlagan "Chakana savdo korxonalarida raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi" nomli monografiyani nashrga tavsiya etish haqida.

"Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida mudiri N.Raximovning axboroti.

6.2. "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida assistent-o'qituvchisi Shukurov Ikromni katta o'qituvchi lavozimiga tavsiya etish to'g'risida.

"Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrasida mudiri N.Raximovning axboroti.

6.3. "Tarix va madaniy meros" kafedrasida professori v.v.b. Xidirov Muhsin Mixaylovich tomonidan 70211004 – Muzeysunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlagan "Arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi va rekonstruksiyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanmasini nashrga tavsiya etish haqida.

"Tarix va madaniy meros" kafedrasida mudiri O.Boynazarovning axboroti.

6.4. "Turizm" kafedrasida o'qituvchilari N.Raximova, N.Mansurova, M.Amriddinova, M.Ahrorova, X.Ibragimovlar tomonidan "Project management in Tourism" fanidan 61010100 – "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlagan "Project management in Tourism" o'quv qo'llanmasini, shu kafedra o'qituvchilari N.Muhammadiyeva hamda M.Amriddinova tomonidan "Principle of Marketing" fanidan 60411200 – "Marketing" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlagan "Marketingga kirish" o'quv qo'llanmasini, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti PhD, dotsent N.Sh.Mansurova, "Turizm" kafedrasida mudiri PhD X.Ibragimov, kafedra assistent-o'qituvchilari Z.Mahmudova, R.Rofeyevalar tomonidan "Design of tourism destination" fanidan 61010100 – "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim

yoʻnalishi talabalari uchun tayyorlagan “Routes and Destinations in Tourism” nomli oʻquv qoʻllanmasini nashrga tavsiya etish haqida.

“Turizm” kafedrasi mudiri X.Ibragimovning axboroti.

6.5. N.Sh.Mansurova tomonidan 60410800 – “Menejment” bakalavriat taʼlim yoʻnalishining kunduzgi taʼlim shakli talabalari uchun tayyorlangan “Human Resources Management” nomli darsligini nashrga tavsiya etish haqida.

“Turizm” kafedrasi mudiri X.Ibragimovning axboroti.

6.6. Universitetda 2025-yilda ilmiy daraja (PhD) olgan oʻqituvchilarni ragʻbatlantirish toʻgʻrisida.

Ilmiy tadqiqotlar boʻlimi boshligʻi N.Mansurovaning axboroti.

1-MASALA

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning “Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi hamda Turizm qoʻmitasi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi toʻgʻrisida”gi axboroti eshitildi.

I. Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qoʻmitasining 2025-yil 11-noyabrdagi 380-AF buyrugʻida “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmonining 8-ilova 7-bandi ijrosini taʼminlash toʻgʻrisida quyidagicha maʼlumot keltirilgan:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmonining 8-ilova 7-bandiga koʻra Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan 2025/2026-yillar davomida 200 nafar gid-tarjimon uchun xitoy tilini oʻrganish boʻyicha imtiyozli tayyorlov kurslarini tashkil etilsin.

2. Universitetda gid-tarjimonlarning xitoy tilini oʻrganish kurslari 2025-yil 12-noyabrdan boshlansin hamda oʻquv kurslariga tajribali professor-oʻqituvchilarni jalb qilish taʼminlansin.

Kun tartibidagi 1-masala boʻyicha Senat aʼzolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar koʻrib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor D.A.Nasimovning “Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi hamda Turizm qoʻmitasi, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi toʻgʻrisida”gi axboroti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2025/2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin koʻpaytirish va turistik xizmatlar koʻlamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi oʻrni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmonining 8-ilova 7-bandi ijro uchun qabul qilinsin.

3. Universitetda gid-tarjimonlarning xitoy tilini o'rganish kurslari 2025-yil 12-noyabrdan boshlansin hamda o'quv kurslariga tajribali professor-o'qituvchilarning jalb qilinishi ta'minlansin.

4. Bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son qarorining 2-ilovasiga muvofiq gid-tarjimonlarni tayyorlash kurslarini tashkil etish choralari ko'rilsin.

5. Topshiriq ijrosini to'liq ta'minlashni tashkil etish yuzasidan 2026-yil yanvar oyidan boshlab gid-tarjimonlar uchun xitoy tilini o'rganish bo'yicha navbatdagi kurslarni tashkil etish yuzasidan tashkiliy choralar ko'rilsin.

Mas'ul: "Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrası mudiri T.Akramova.

2-MASALA

Eshitildi: Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo'limi boshlig'i Sh.Mardanovanning "2025-yil yanvar-oktabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

2025-yil yanvar-oktabr oylarida universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda turli tashkilotlardan jami 4029 ta hujjat kelib tushgan, shundan 3800 ta hujjat ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan. Hozirda 229 ta topshiriq bajarilmoqda.

Universitetga jismoniy va yuridik shaxslardan 2025-yil oktabr oyi holatiga ko'ra 3 ta murojaat kelib tushgan.

Universitet "edo.ijro.uz" hamda elektron pochta orqali kelib tushgan murojaatlar 3 ta. Kelib tushgan murojaatlarning barchasi ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yig'ilishi 76-sonli bayoni haqida gapirildi, ya'ni "Ijro.gov.uz" tizimida 2025-yil yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining nazorat topshiriqlarining ijrosi yakunlari hamda 2025-yil noyabr-dekabr oylarida barcha topshiriqlar samarali va to'liq hajmda bajarish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida aytildi.

Kun tartibidagi 2-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovning “2025-yil yanvar-oktabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari (T.Sultanov, O.Boynazarov, H.Ibragimov, T.Akramova, N.Raximova)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Viloyat hokimligi hamda turli tashkilot va idoralardan kelgan barcha turdagi topshiriqlar ijrosi “edo.ijro.uz” elektron platformasidan foydalangan holda belgilangan muddatlarga qat’iy rioya qilgan holda sifatli bajarilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin;
- “edo.ijro.uz” tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddat ichida bajarmaslik yoki muddati o‘tib bajargan mas’ul ijrochilarga nisbatan universitetning 2024-yil 9-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i asosida intizomiy jazo qo‘llanilsin;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishi ta’minlasin. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya’ni o‘z vaqtida ijrosini ta’minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas’ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishini ta’minlasin.

4. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya’ni o‘z vaqtida ijrosini ta’minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas’ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3-MASALA

Eshitildi: O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning “2025/2026-o‘quv yilida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari uchun ishlab chiqilgan Bitiruv

malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo'yicha yo'riqnomalarni tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulov tomonidan 2025/2026-o'quv yili bitiruvchilari uchun universitetning tajribali professor-o'qituvchilari tomonidan Bitiruv malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo'yicha yo'riqnomalarini qayta ko'rib chiqib tasdiqlash kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek, yo'riqnomalar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish va boshqa nizomlarga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Kun tartibidagi 3-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning 2025/2026-o'quv yili bitiruvchilari uchun universitetning tajribali professor-o'qituvchilari tomonidan Bitiruv malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo'yicha yo'riqnomalarini qayta ko'rib chiqib tasdiqlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning 2025/2026-o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari uchun Bitiruv malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo'yicha yo'riqnomalar kafedra mudirlari tomonidan 2025-yil 10-noyabrga qadar ishlab chiqilsin.

3. O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi tomonidan Bitiruv malakaviy ishi va Magistrlik dissertatsiya ishlarini (Thesis) yozish bo'yicha yo'riqnomalar barcha bitiruvchi kurs talabalariga yetkazilsin.

4-MASALA

Eshitildi: O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2026-yil universitet rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari kontingentini shakllantirish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida universitetda rahbar va pedagog

kadrlarning malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash jarayonini tizimli tashkil etish masalasi ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlab o‘tildiki, Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tinglovchilari kontingenti bo‘yicha buyurtmalar Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining yagona elektron tizimi - <https://my.bimm.uz> platformasi orqali qabul qilinadi. Shu munosabat bilan universitetning barcha fakultet va kafedralari kesimida 2026-yil uchun rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslarida o‘qish rejalarini shakllantirish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, 2025-yil 25-oktabrga qadar tegishli kafedralar bo‘yicha professor-o‘qituvchilar ro‘yxatini shakllantirish hamda 2025-yil 5-noyabrga qadar ularni elektron tizimga kiritish kerakligi ta’kidlandi.

Kun tartibidagi 4-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, universitet rahbar va pedagog kadrlarini 2026-yilda qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslariga jalb etish to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kafedra mudirlariga 2026-yil uchun rahbar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslarida o‘qishi bo‘yicha buyurtmalarni 2025-yil 3-noyabriga qadar tegishli kafedralar kesimida shakllantirish topshirilsin.

3. Xodimlar bilan ishlash (HR) bo‘limi hamda O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limiga shakllantirilgan buyurtmalarni 2025-yil 5-noyabrga qadar Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining yagona elektron tizimiga — <https://my.bimm.uz> orqali kiritish vazifasi yuklatilsin.

5-MASALA

Eshitildi: O‘quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i M.Yorqulovning “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrda 472-son buyrug‘ining 3-band ijrosini ta’minlash maqsadida 2025/2026-o‘quv yili Yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruv malakaviy ishi hamda test topshiradigan Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrda 472-sonli buyrug‘ining 3-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida 2025/2026-o‘quv yili

Yakuniy davlat attestatsiyasini (YDA) o'tkazish tartibi hamda shakllarini aniqlash masalasi ko'rib chiqildi.

Mazkur buyruqqa muvofiq, Yakuniy davlat attestatsiyasini bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida bitiruv malakaviy ishi (BMI) yoki test sinovi shaklida o'tkazilishi belgilangan. Shu munosabat bilan universitetda mavjud barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Yakuniy davlat attestatsiyasi shaklini aniqlash, ya'ni qaysi yo'nalishlarda bitiruv malakaviy ishi, qaysilarida test topshirish tartibi aniqlandi hamda 2025/2026-o'quv yili uchun bitiruv malakaviy ishi yoki test topshirish shaklida Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari ro'yxatini tasdiqlash lozimligi belgilandi.

Kun tartibidagi 5-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i M.Yorqulovning "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 23-dekabrda 472-son buyrug'ining 3-band ijrosini ta'minlash maqsadida 2025/2026-o'quv yili Yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruv malakaviy ishi hamda test topshiradigan Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026-o'quv yilida 61010400: Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 61010500: Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili), 60411200: Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60411700: Logistika (turizm logistikasi), 61010100: Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, 60212100: Muzeyshunoslik (turlari bo'yicha), 60220400: Arxeologiya, 60212200: Madaniy meros obyektlarini asrash Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida Yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari doirasida bitiruv malakaviy ishi yozilsin.

3. 2025/2026-o'quv yili Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari sirtqi ta'lim shakli bitiruvchilari uchun Yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari doirasida test topshiriladigan fanlar majmuasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin va talabalarga e'lon qilinsin.

4. 2025/2026-o'quv yili Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari sirtqi ta'lim shakli bitiruvchilari uchun Yakuniy davlat attestatsiya imtihonlari doirasida test topshiriladigan fanlardan test tayyorlash "Turizm" hamda "Tarix va madaniy meros" kafedralariga yuklatilsin. Fanlardan tuziladigan testlar 2025-yil 15-dekabrga qadar tayyorlansin va o'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limiga tasdiqlangan holda taqdim etilsin.

6. HAR XIL MASALALAR

Eshitildi:

6.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N. Raximovaning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası ” kafedrası dots. v.b., PhD Sultanova Nigina Utkurovna tomonidan 60410100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Chakana savdo korxonaları raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” nomli monografiyani nashrga tavsiya etish to’g’risida”gi axboroti eshitildi.

Mazkur monografiyada chakana savdo korxonaları faoliyatini tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo’lib, raqobatbardoshlikni baholashning ko’rsatkichlari tizimi taklif etilgan. Xususan, tovar aylanmasi, xizmat ko’rsatish sifati, marketing strategiyalari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va personal salohiyati kabi ko’rsatkichlar asosida raqobatbardoshlik darajasini aniqlashga oid samarali usullar ko’rsatilgan hamda chakana savdo xizmatlar bozorida mijozlarga yuqori sifatli va raqobatbardosh xizmat ko’rsatishni rivojlantirish bo’yicha xorijiy tajribalar va respublikada ulardan foydalanish yo’nalishlarini ochib berishga bag’ishlangan.

Monografiya matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

Monografiyani nashrga tavsiya etish bo’yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 6.1.-masala bo’yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko’rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N.Raximovaning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası ” kafedrası dots. v.b., PhD Sultanova Nigina Utkurovna tomonidan 60410100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Chakana savdo korxonaları raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi” nomli monografiyasi tasdiqlansin va “Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag’lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo’limi boshlig’i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo’limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

6.2. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası mudiri N. Raximovaning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrası assistent-o’qituvchisi Shukurov Ikromni katta o’qituvchi lavozimiga tavsiya etish to’g’risida”gi axboroti eshitildi.

Shukurov Ikrom Abdurashitovich Samarqand viloyati Payariq tumanida 1984-yil 14-noyabrda tug‘ilgan, millati o‘zbek, ma’lumoti oliy. 2006-yilda Samarqand davlat universitetining magistratura bosqichida “Differensial tenglamalar” mutaxassisligini bitirgan. 2006-2013-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti qoshidagi 1-son akademik litsey o‘qituvchisi, 2013-2015-yillarda Samarqand qishloq xo‘jalik instituti qoshidagi 1-son akademik litsey o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, 2016-yilda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti servis va turizm fakulteti dispetcheri, 2016-2018-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oliy matematika kafedrasida assistenti, 2018-2020-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasida assistenti, 2020-2021-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oliy matematika kafedrasida assistenti, 2022-yilda Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Talabalarni turarjoy bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i, 2022-2024-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oliy matematika kafedrasida assistenti, 2024-yilda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti oliy matematika kafedrasida katta o‘qituvchisi, 2024-2025-yillarda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o‘quv bo‘limi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan. 2025-yil 1-fevraldan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i lavozimida ishlab kelmoqda. 2023-yil 4-yanvardan 2025-yil 30-iyungacha “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Turizm” kafedrasida o‘rindoshlik asosida assistent-o‘qituvchi lavozimida ishlagan. 2025-yil 6-oktabrdan hozirgi vaqtgacha “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasida o‘rindoshlik asosida assistent-o‘qituvchi lavozimida ishlab kelmoqda.

Hozirgi kunda Qarshi davlat texnika universitetida 08.00.06 – Ekonometrika va statistika ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Uning o‘n beshdan ortiq maqola va tezislari chop etilgan. Ularning ichida oxirgi 3 yilda quyidagi maqola va tezislari chop etilgan: “American Journal of Economics and Business Management” jurnalida “Dynamic Analysis of The Tourism Sector of Samarkand Region” nomli maqola; “Academic Journal of Digital Economy and Stability” jurnalida “Opportunities for Developing the Volume of Tourist Services in the Samarkand Region” nomli maqola; “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalida “Turizm sohasini ekonometrik modellashtirishda qo‘llaniladigan ekonometrik usullar va amaliy imkoniyatlar” nomli maqola; “Servis” ilmiy-amaliy jurnalida “Turizm sohasini barqaror rivojlantirishda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi” nomli maqola; “Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnalida “Turizm sohasining rivojlanishida turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo‘llanmalarining ta’sirini tahlil etish” nomli maqola; “Экономика и социум”

jurnalida “Samarqand viloyati mintaqasi turizm salohiyatini rivojlantirishda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili” nomli maqola; “Экономика и социум” jurnalida “Iqtisodiyotda ekonometrik modellashtirishning ahamiyati va roli” nomli maqola; “Экономика и социум” jurnalida “Bozor iqtisodiyotida oddiy chiziqli ekonometrik modellashtirish” nomli maqola; “Journal of marketing, business and management(JMBM)” jurnalida “Viloyat asosiy kapitaliga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning turizm sohasiga ta’sirini tahlil etish” nomli maqola; “Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan foydalanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada “Turizm rivojlanishining istiqbollarda turistik firma va tashkilotlar tomonidan sotilgan sayyohlik yo‘llanmalarining ta’sirini tahlil etish” nomli tezis; “O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” mavzusidagi yosh olimlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumanida “Samarqand viloyatida turizm sohasining hududiy ichki mahsulot hajmiga sohaga kiritilgan investitsiya hajmining ta’sirini tahlil etish” nomli tezis; “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g‘oya va yechimlar” VIII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida “Samarqand viloyati turizm sohasining barqaror iqtisodiy rivojlanishining aholi farovonligiga ta’sirini tahlil etish” nomli tezis; “Mintaqani barqaror va kompleks rivojlantirishning zamonaviy muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “Mintaqa turizm sohasining rivojlanishida ekonometrik modellashtirishning dolzarbligi va ustuvor yo‘nalishlari” nomli tezis; “Iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida respublika moliya va bank tizimi barqarorligini ta’minlash va yanada rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’siri va uning ekonometrik tahlili” nomli tezisi shular jumlasidandir.

Shukurov Ikrom Abdurashitovich universitet jamoasi hamda talabalar o‘rtasida hurmat-e’tiborga ega bo‘lib, u o‘z malakasi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib kelmoqda. Universitetda va xalqaro miqyosda olib borilayotgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Shukurov Ikrom Abdurashitovichning universitet mehnat jamoasidagi yosh va malakali mutaxassis sifatida samarali mehnat qilib kelayotganligi hamda uning ilmiy sohada yetuk olim sifatida shakllanishiga ishonch bildirildi.

Kun tartibidagi 6.2.-masala bo‘yicha Senat a’zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri N. Raximovning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini assistent-

o'qituvchisi Shukurov Ikromni katta o'qituvchi lavozimiga tavsiya qilish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası" kafedrası assistent-o'qituvchisi Shukurov Ikrom katta o'qituvchi lavozimiga tavsiya etilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Xodimlar bilan ishlash (HR) bo'limi boshlig'i A.Xolbayev, Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

6.3. "Tarix va madaniy meros" kafedrası mudiri O.Boynazarovning "Tarix va madaniy meros" kafedrası professori v.v.b. Xidirov Muhsin Mixaylovich tomonidan 70211004 – Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlagan "Arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi va rekonstruktsiyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanmasini nashrga tavsiya etish to'g'risidagi axboroti eshitildi.

O'quv qo'llanma 70211004 – Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash magistratura mutaxassisligi uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanma arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi va rekonstruktsiyasi bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun ham informatsion material sifatida foydali bo'lishi mumkin. O'quv qo'llanma tarixiy va madaniy meros obyektlari restavratsiyasi va rekonstruktsiyasi bilan bog'liq masalalar dolzarb bo'lgan sharoitlarda madaniy meros yodgorliklarini asrab-avaylash va foydalanish muammolariga bag'ishlangan.

Madaniy merosni saqlash muammosi zamonaviy jamiyat oldida turgan muhim muammolardan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. O'tmishda barpo etilgan madaniy meros yodgorliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish tamoyillari O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridayoq shakllantirilgan edi. Ayniqsa, so'nggi o'n yilliklarda bu masalalarga katta e'tibor qaratildi, bu 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunida va tarixiy shaharlar va me'moriy yodgorliklarni himoya qilishga bag'ishlangan bir qator farmonlarda o'z aksini topdi.

O'quv qo'llanma matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

O'quv qo'llanmani nashrga tavsiya etish bo'yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 6.3-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Tarix va madaniy meros" kafedrası mudiri O.Boynazarovning "Tarix va madaniy meros" kafedrası professori v.v.b. Xidirov Muhsin Mixaylovich tomonidan 70211004 – Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish,

ta'mirlash va saqlash magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi va rekonstruktsiyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanmani nashrga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Tarix va madaniy meros" kafedra professori v.v.b. Xidirov Muhsin Mixaylovich tomonidan 70211004 – Muzeyshunoslik, tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya qilish, ta'mirlash va saqlash magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlangan "Arxitektura yodgorliklari restavratsiyasi va rekonstruktsiyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanma tasdiqlansin hamda "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo'limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

6.4. "Turizm" kafedra mudiri X.Ibragimovning "Turizm" kafedra o'qituvchilari N.Raximova, N.Mansurova, M.Amriddinova, M.Ahrorova, X.Ibragimovlar tomonidan "Project management in Tourism" fanidan 61010100 – "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Project management in Tourism" o'quv qo'llanmasini, shu kafedra o'qituvchilari N.Muhammadiyeva hamda M.Amriddinova tomonidan "Principle of Marketing" fanidan 60411200 – "Marketing" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Marketingga kirish" o'quv qo'llanmasini, PhD, dotsent N.Sh.Mansurova, "Turizm" kafedra mudiri PhD X.Ibragimov, kafedra assistent-o'qituvchilari Z.Mahmudova, R.Rofeyevalar tomonidan "Design of tourism destination" fanidan 61010100 – "Turizm va mehmondo'stlik" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan "Routes and Destinations in Tourism" nomli o'quv qo'llanmasini nashrga tavsiya etish to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

"Turizmda loyihalarni boshqarish" nomli o'quv qo'llanma turizm boshqaruvi bo'yicha ilmiy va amaliy bilimlarni birlashtiruvchi, puxta tuzilgan manbadir. Qo'llanma klassik loyiha boshqaruvi tamoyillarini turizm sohasining o'ziga xos operatsion, ijtimoiy va madaniy jihatlari bilan uyg'unlashtirgan bo'lib, talabalar va mutaxassislarni murakkab turizm loyihalarini samarali boshqarishga tayyorlaydi.

Qo'llanmaning asosiy afzalliklaridan biri loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarini (boshlanish, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring va baholash) tizimli yoritib berishidir. Unda ishlarni tuzilmaviy tahlili (WBS), manfaatdor tomonlar xaritasi, byudjetni boshqarish, xavf tahlili kabi usullar turizm misollarida sodda va tushunarli tarzda bayon qilingan. Bu esa o'quvchilarga nazariy tushunchalarni turizm amaliyotida qo'llash imkonini beradi.

Qo'llanmaning yana bir muhim jihati barqarorlik va manfaatdor tomonlarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilishidir. Muallif ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy

omillarning loyihalardagi ahamiyatini ko'rsatib, turizmni mas'uliyatli boshqarish va uzoq muddatli qiymat yaratish zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv turizm sohasida mas'uliyatli yetakchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Qo'llanmadagi amaliy keyslar va xalqaro tajribalar uning o'quv qiymatini yanada oshiradi. Turli mamlakatlardagi yo'nalishlar – destinatsiyalarni rivojlantirish, madaniy merosni asrash, tadbirlarni rejalashtirish orqali talabalar tahliliy fikrlash va madaniy moslashuv kompetensiyalarini rivojlantiradilar.

“Marketingga kirish” nomli o'quv qo'llanmaning mohiyati zamonaviy iqtisodiyotda marketing tashkilot faoliyatining markaziy boshqaruv funksiyasiga aylangan. U mahsulot yoki xizmatni reklama qilishdan iborat emas, balki mijoz ehtiyojlarini chuqur o'rganish, ular uchun qiymat yaratish va bu qiymat orqali tashkilot foydasini oshirishga qaratilgan strategik tizimdir. Marketingning asosiy vazifasi – mijozlar bilan o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatish, ularga eng optimal qiymat taklif qilish va mijozlar sadoqatini oshirishdir. Mazkur o'quv qo'llanmada marketingning asosiy tushunchalari, tamoyillari va jarayonlari o'rgatiladi. Talabalar marketing muhiti, strategiya, iste'molchi xulqi, bozor tadqiqotlari, narxlash, brend boshqaruvi va kommunikatsiyalar yo'nalishlari bilan tanishadi. O'quv qo'llanmada quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi: bozor va iste'molchi ehtiyojlarini tahlil qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, 4P (mahsulot, narx, joy, targ'ibot) elementlarini uyg'unlashtirish, mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni boshqarish.

Kurs amaliy misollar, keyslar va jahon tajribasi asosida olib boriladi. Yakunda talabalar marketing nazariyasini real korxonada va turizm industriyasi misolida qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Taqdim etilgan “Routes and Destinations in Tourism” nomli o'quv qo'llanma yangi avlod adabiyotlari talabiga, fanning namunaviy rejasiga va fan dasturiga mos holda ravon tilda yozilgan bo'lib, unda yoritilgan mavzularda turistik yo'nalishlar, destinatsiyalar va zaruriy jihatlari qamrab olingan.

Shuning uchun ham taqdim etilgan “Routes and Destinations in Tourism” nomli o'quv qo'llanmaga tendentsiyalari, yoritilgan materiallardan tashqari, innovatsiyalar, ularning hayot aylanishi, innovatsion rivojlanish modellari va strategiyalari bo'yicha umumiy nazariy materiallar kiritilgan.

Kun tartibidagi 6.4-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Turizm” kafedrasini mudiri X.Ibragimovning “Turizm” kafedrasini o'qituvchilari N.Raximova, N.Mansurova, M.Amriddinova, M.Ahrorova, X.Ibragimovlar tomonidan “Project management in Tourism” fanidan 61010100 –

“Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Project management in Tourism” o‘quv qo‘llanmasini, shu kafedra o‘qituvchilari N.Muhammadiyeva hamda M.Amriddinova tomonidan “Principle of Marketing” fanidan 60411200 – “Marketing” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Marketingga kirish” o‘quv qo‘llanmasini, PhD, dotsent N.Sh.Mansurova, “Turizm” kafedrasini mudiri PhD X.Ibragimov, kafedra assistent-o‘qituvchilari Z.Mahmudova, R.Rofeyevalar tomonidan “Design of tourism destination” fanidan 61010100 – “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Routes and Destinations in Tourism” nomli o‘quv qo‘llanmasini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Turizm” kafedrasini o‘qituvchilari N.Raximova, N.Mansurova, M.Amriddinova, M.Ahrorova, X.Ibragimovlar tomonidan “Project management in Tourism” fanidan 61010100 – “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Project management in Tourism” o‘quv qo‘llanmasini, shu kafedra o‘qituvchilari N.Muhammadiyeva hamda M.Amriddinova tomonidan “Principle of Marketing” fanidan 60411200 – “Marketing” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Marketingga kirish” o‘quv qo‘llanmasini, PhD, dotsent N.Sh.Mansurova, “Turizm” kafedrasini mudiri PhD X.Ibragimov, kafedra assistent-o‘qituvchilari Z.Mahmudova, R.Rofeyevalar tomonidan “Design of tourism destination” fanidan 61010100 – “Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Routes and Destinations in Tourism” nomli o‘quv qo‘llanmasini tasdiqlansin hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 20 donadan nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo‘limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

6.5. “Turizm” kafedrasini mudiri X.Ibragimovning PhD N.Sh.Mansurova tomonidan 60410800 – “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shakli talabalari uchun tayyorlangan “Human Resources Management” nomli darsligini nashrga tavsiya etish to‘g‘risidagi axboroti eshitildi.

X.Ibragimov “Human Resources Management” fanini o‘qitish uchun N.Sh.Mansurova tomonidan yozilgan yangi darslik ta’lim jarayoniga kiritilganligini ta’kidlaydi. U ushbu darslik 60410800 – “Management” yo‘nalishida tahsil olayotgan 1-kurs bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun to‘liq mos ekanligini qayd etdi. Shuningdek, darslik fan dasturiga to‘liq mos kelishi va fan mazmunini mukammal qamrab olishini alohida e’tirof etdi.

Ushbu darslik mazmuni xalqaro ta’lim standartlariga to‘liq javob beradi hamda “Human Resources Management” fanining asosiy konseptual yo‘nalishlarini

qamrab olgan. Talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash maqsadida darslik interaktiv topshiriqlar, amaliy misollar va keyslar bilan boyitilgan. Har bir mavzu ilmiy asosda, tizimli yondashuv orqali chuqur yoritilgan bo‘lib, bu talabalarga turizm va mehmonxona menejmenti yo‘nalishining nazariy hamda amaliy jihatlarini puxta o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Darslik mazmuni talabalarda turizm sohasi bo‘yicha keng qamrovli, zamonaviy va amaliy bilimlarni shakllantiradi, bu esa ularning kelajakdagi professional faoliyatida yuqori malakali mutaxassis sifatida yetishib chiqishlariga xizmat qiladi.

Darslik matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

Darslikni nashrga tavsiya etish bo‘yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 6.5-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Turizm” kafedra mudiri X.Ibragimovning “PhD N.Sh.Mansurova tomonidan 60410800 – “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shakli talabalari uchun tayyorlangan “Human Resources Management” nomli darsligini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida” axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. N.Sh.Mansurova tomonidan 60410800 – “Menejment” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shakli talabalari uchun tayyorlangan “Human Resources Management” nomli darsligi tasdiqlansin hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo‘limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

6.6. Ilmiy tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i N.Mansurovaning “Universitetda 2025-yilda ilmiy daraja (PhD) olgan o‘qituvchilarni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Vasiylik kengashining 2022-yil 17-avgustdagi 3-son bayoni 2-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti professor-o‘qituvchilari hamda ishchi-xodimlariga ustama, mukofot va moddiy yordam berish to‘g‘risidagi Nizomning 3-bobi 4-xatboshida universitetda faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar faoliyati davomida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olganligi uchun xodimga oylik maoshining bir barobarigacha universitet byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bir martalik mukofot puli berilishi belgilab qo‘yilgan.

2025-yil 24-sentabr kuni universitetda faoliyat yuritayotgan “Tillar va global tadqiqotlar” kafedra o‘qituvchisi Yusupova Gulrux Nabiyevna pedagogika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD), shuningdek 31-oktabr kuni "Turizm" kafedrasida o'qituvchilari Pardayev Botir Rahmatullayevich va Yorqulov Muhammadmurod Ahmad o'g'li iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishgan.

Yuqorida nomlari qayd etilgan professor-o'qituvchilar falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilganliklari sababli, Nizomning 3-bobi 15-bandi 4-xatboshisiga asosan, ularni oylik lavozim maoshining bir barobari miqdorida byudjet mablag'lari hisobidan bir martalik moddiy rag'batlantirish taklif etiladi.

Kun tartibidagi 6.6-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i N.Mansurovaning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasida o'qituvchisi Yusupova Gulrux Nabiyevnaga oylik lavozim maoshining bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi to'lab berilsin.

3. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini muvaffaqiyatli himoya qilgan Pardayev Botir Rahmatullayevich hamda Yorqulov Muhammadmurod Ahmad O'g'liga oylik lavozim maoshining bir baravari miqdorida bir martalik rag'batlantirish to'lovi to'lab berilsin.

4. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma yurituvchi:

**Protokol kotibiyati bo'limi
bosh mutaxassisi**

A.Izbasarova

**"IPAK YO'LI" TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING DOIMIIY A'ZOLARI RO'YXATI**

2025-yil 31-oktabr

soat: 15.00

109-xona

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor, Senat raisi o'rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
5.	A.Q.To'xtamishov	Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i	
6.	N.H.Xushvaqto'v	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	
8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Registrator ofis bo'limi boshlig'i	
10.	M.Yorqulov	O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i	
11.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i	
12.	T.I.Sultanov	"Tillar va global tadqiqotlar" kafedrası mudiri	
13.	O.F.Boynazarov	"Tarix va madaniy meros" kafedrası mudiri	
14.	X.I.Ibragimov	"Turizm" kafedrası mudiri	
15.	T.K.Akramova	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrası mudiri	
16.	N.A.Raximova	"Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot" kafedrası mudiri	
17.	N.M.Turdiyeva	"Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari" kafedrası dotsenti, PhD	
18.	VAKANT	Talabalar parlamenti prezidenti	